

XOTIRANING INSON FAOLIYATIDAGI AHAMİYATI, NERV- FIZIOLOGIK ASOSLARI, TURLARI VA JARAYONLARI

ERGASHEVA SEVINCH JUMANAZAR

QIZI

Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti
" Boshlang'ich ta'lim" kafedrası Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi (+99887) 645.78.07

E- mail:ergashevasevinch07@gmail.com

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya
kafedrası o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada xotiraning inson faoliyatidagi ahamiyati, xotiraning nerv-fiziologik asoslari, turlari va jarayonlari keng yoritilgan .

Kalit so'zlar: Xotira, shaxs, faoliyat, fiziologik, mexanik, operativ, tadqiqot, klassifikatsiya.

АННОТАЦИЯ

В статье подробно рассматривается значение памяти в деятельности человека, нейрофизиологические основы, типы и процессы памяти.

Ключевые слова: Память, человек, деятельность, физиологическая, механическая, операциональная, исследование, классификация.

Abstract

This article extensively discusses the importance of memory in human activity, the neurophysiological foundations, types and processes of memory.

Keywords: Memory, person, activity, physiological, mechanical, operational, research, classification.

Kirish

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki yotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoitini ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quydagicha ta'riflanadi. "Individning o'z tajribasida esda olib qolishni, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi". Lekin mazkur ta'riflarni tahlili qilgan professor E.G'.G'oziyev tomonidan xotira tushunchasiga quydagicha ta'rif beriladi. "Xotira atrof-muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mexanik faoliyatdir. Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarni to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega. Shaxsning yo'nalishi uning qiziqishida ifodalanadi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa va hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil o'zlashtira olmaydilar. Bu ularning ha xil xotiraga ega ekanliklar bilan emas, balki o'qitilayotgan fanga qiziqishning ha xilligi bilan

tushuntiriladi. Esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Xotiraning nerv-fizialogik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zmatuvchilik ta'sirida o'zida go'yo bir iz qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday insonning miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning darajasi har xil bo'ladi. Shaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Bu o'rinda akademik I.P.Pavlovning quyidagi so'zlari juda xarakterlidir. "Muvaqqat nerv bog'lanishlari-deb yozadi.. I.P.Pavlov hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, turli-tuman harakat, taassurot bolmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlar-ki, bu bog'lanishlarni psixologik assosiasiyalar deb ataydilar". Xotira, ya'ni esda olib qolish, idrok qilinayotgan narsalardan hosil bo'lgan obrazlar o'rtasida assosiasiyalarning yuzaga kelishidan iboratdir.

Xotira turlari

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillar ham xilma-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga bog'liqligi olinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari turlicha klassifikatsiya qilinadi. Jumaladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan. "Umumiy psixologiya" darsligida quydagi klassifikatsiya uchraydi:

Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: harakat, emotsional, obrazli va so'z mantiq xotira. Faoliyatning maqsadlariga ko'ra: ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.

Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

M.G. Davletshin tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida quydagi xotira klassifikatsiya qayd qilinadi:

Psixik faolligiga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.

Faoliyat maqsadiga ko'ra: harakat, emotsional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.

E.G'.G'oziyev tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida xotira turlari quydagicha klassifikatsiya qilingan.

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra:

- a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- c) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
- d) so'z -mantiq xotira.

2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoriy;
- c) mexanik;

3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli xotira;
- c) operativ xotira.

Harakat xotirasi- inson faoliyatining har bir turlicha ruhiy faollikninig u yoki ko'rinsihlarini ustunlik qilishida kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib, harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyljarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega.

Образли xotira- tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta'mlar, ranglar shakllar, bilan bog'liq bo'lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb yaqqol mazmunni, binobarin, narsa, hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog'lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug'ilganda esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi va boshqalari

Xotira jarayonlari

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. Esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarni miya po'stida iz hosil qilishidir.

Uning fiziologik asosi miya po'stida muvaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. Esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi:

- a) ixtiyoriy esda qoldirish;
- b) ixtiyorsiz esda qoldirish;

Ixtiyorsiz esda qoldirishda oldindan maqsad quyilmaydi, mavzu tanlamaydi va iroda kuchi sarflanmaydi.

O'zining go'zalligi, hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi, tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. Masalan, tasodifiy hodisalar, karnay-surnay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.

Xulosa

Xotira insonning psixik faoliyati tizimida markaziy o'rin tutadi va shaxsning bilish jarayonlari, o'rganish dinamikasi hamda kundalik hayotdagi faoliyat samaradorligini belgilovchi eng muhim kognitiv jarayonlardan biridir. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, xotira — bu ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va kerakli vaqtda qayta tiklashga xizmat qiluvchi murakkab neyropsixologik mexanizmdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xotira turli shakllarda namoyon bo'ladi: qisqa muddatli, uzoq muddatli, mantiqiy, emotsional va harakat xotirasi inson rivoji va faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro uzviy bog'liq holda ishlaydi. Xotiraning rivojlanishi tashqi muhit omillari, ta'lim jarayoni, emotsional holat va individual temperament bilan chambarchas bog'liq. Maktabgacha va maktab yoshida xotira jadal rivojlansa, balog'at yoshida barqarorlashadi va ongli ravishda boshqarish ko'nikmalari

kuchayadi. Mutaxassislar xotirani faollashtirish va mustahkamlash uchun takrorlash, assotsiatsiya, vizual texnikalar, mantiqiy bog‘lanish yaratish va motivatsiyani oshirish kabi metodlar eng samarali ekanini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan zamonaviy davrda inson xotirasining funksional yuklamasi o‘zgarib, “raqamli xotira”ga tayanish kuchaygan bo‘lsa-da, ilmiy tadqiqotlar tabiiy xotirani rivojlantirishning o‘rni hech narsa bosa olmasligini tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, xotirani chuqur o‘rganish va uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlar shaxsning intellektual salohiyati, o‘quv faoliyati va kundalik hayotdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir etadigan eng muhim psixologik omildir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. 1.Davlatshin M. G. Umumiy psixologiya. -- T.:2002
2. 2.Karimova V. M. Psixologiya. --- To.:2002,
3. 3.G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya 1-2 kitob,--T.:2002
4. Немов Р.С Психология: Курс лекций / Сост. Е. И. Рогов. -- М.: Владос, 1999,
5. Рубинштейн С. Л. Основы общей Психологии. -- СПб.: Питер, 1999.
6. Ko‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O ‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – С. 778-783
7. Atamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 771-774
8. Achilov, O. M., Kochkinova, M. N., & Kamolova, O. M. Q. (2021). THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL

CHILDREN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 137-140

9. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 137-140

10. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 443-447

11. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 443-447

12. Ko'chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O 'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – Т. 16. – №. 1

13. Ko'charova D., Ko'chkinova M. XURSHID DO 'STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 703-707

14. Ko'charova D., Ko'chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 714-716

15. Ko'chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G'afur o'g'li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/articl>.

16. Norbutayevna K. M. et al. MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA IJOBIY MOTIVATSIYANI QO'LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK USULLARI //KONFERENSIYA. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 467-474.
17. Norbutayevna K. M. TALABALARDA O'ZO'ZINI ANGLASH VA REFLEKSIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //KONFERENSIYA. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 127-132.
18. Кўчкинова М. ЗНАЧЕНИЕ ИМИДЖА СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ //Предпринимательства и педагогика. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 104-117.
19. Kochkinova M. THE IMPORTANCE OF THE IMAGE OF A MODERN TEACHER IN THE PROFESSIONAL PREPARATION OF A FUTURE TEACHER //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 614-621.
20. Norbutayevna K. M. et al. BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHDA, ILMIY YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TAHLILI //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – С. 218-226.
21. Norbutayevna K. M. et al. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTEMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI VA DOLZARBLIGI //Modern education and development. – 2025. – T. 20. – №. 1. – С. 227-233.
22. Кўчкинова М. ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРАВИЛ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЭТИКЕТА //Предпринимательства и педагогика. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 194-203.